JORIY YILNING O‘TGAN DAVRIDA “O‘ZAGROINSPEKSIYA”DA QONUNCHILIK HUJJATLARI IJROSI YUZASIDAN AXBOROT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 10-fevraldagi **PF-6166**-sonli, 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-son Farmonlari hamda 31 maydagi **PQ-5132**-sonli qarori talablaridan kelib chiqib har bir topshiriq ijrosi ta’minlanishi nazoratga olinib kelinmoqda.

2026-yilning **yanvar-oktabr oylari**da **113** ta qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari bo‘yicha **564** ta topshiriq bandi ijro muddati bo‘yicha nazoratga olinib, amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tegishli davlat organlari va tashkilotlariga axborotlar kiritilishi hamda to‘liq nazoratdan yechilishi ta’minlandi (*jadval ilova qilinadi*).

Shu jumladan, “Ijro.gov.uz” tizimida “O‘zagroinspeksiya”ning ish yurituvida bo‘lgan **oktabr oyi** muddatli **19** ta qonunchilik hujjatlari bo’yicha **35** ta qonunchilik topshiriqlari ijrosi yuzasidan axborotlar tegishli davlat organlariga kiritilib, barcha topshiriqlar belgilangan tartibda nazoratdan yechilishi ta’minlandi.

Shuningdek, **oktabr oyida** Inspeksiyaga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali **2** ta qonunchilik hujjati bo‘yicha kelib tushgan topshiriqlar yuzasidan **nazorat rejalari ishlab chiqildi** va **tegishli ijrochilarga yo’naltirildi**.

2026-yil **30-oktabr** holatiga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali **57** ta Prezident hujjatlari ijrosi yuzasidan **145** ta topshiriqlari bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Hisobot oyida Vazirlar Mahkamasining **14** ta hujjati va topshiriqlari bo‘yicha **36** ta topshiriq bandi ijro muddati bo‘yicha nazoratga olinib, amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tegishli davlat organlari va tashkilotlariga axborotlar kiritilishi hamda to‘liq nazoratdan yechilishi ta’minlandi.

Shuningdek, **oktabr oyida** Inspeksiyaga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali Vazirlar Mahkamasining **2** ta hujjati bo‘yicha kelib tushgan topshiriqlar yuzasidan **nazorat rejalari ishlab chiqildi** va **tegishli ijrochilarga yo’naltirildi**.

2026-yil **30-oktabr** holatiga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali **20** ta Vazirlar Mahkamasi hujjatlari ijrosi yuzasidan **96** ta topshiriqlari bo’yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Prezident Administratsiyasi va Hukumat komissiyasining **hujjatlari bo’yicha muddati o’tgan topshiriqlar mavjud emas**.

Shuningdek, tizimdagi qonunchilik hujjatlari bo‘yicha keyingi oyda ham topshiriqlar ijrosini qat’iy ta’minlash maqsadida 2026-yil 25-oktabrda **noyabr va dekabr** oylarida "**Ijro.gov.uz**" tizimida bajarilishi lozim bo‘lgan nazoratdagi topshiriqlarni bajarishning kunlik “**Kalendar-grafik**” va ijrosini samarali tashkil etish bo‘yicha “**Yo‘l xaritasi**” Vazirlar Mahkamasiga taqdim qilindi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi